XORAZM VILOYATI QO‘SHKO‘PIR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 19-noyabr | 600-12-172-Q/24 | Qo‘shko‘pir tuman hokimligi

2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ 642-sonli qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, Qo‘shko‘pir tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Qo‘shko‘pir tumanida 2025-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan kelib chiqqan holda 62 ta bo‘sh ish o‘rnini tashkil etadigan, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 29 ta ish o‘rni;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 25 ta ish o‘rni;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 2 ta ish o‘rni;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 2 ta ish o‘rni;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 2 ta ish o‘rni;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar 2 ta ish o‘rni.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya va gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi ta’minlansin, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun bolalarni tarbiyalash majburiyatlari va mehnat majburiyatlari bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan hamda “Mehribonlik” uylari bitiruvchilari uchun ularning kasbiy tayyorgarligiga hamda mutaxassisligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga sog‘ligining holatini hamda mehnat faoliyatiga doir belgilangan qarshi ko‘rsatmalar hisobga olingan holda mehnat majburiyatlarini moneliksiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari.

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari xarakterli talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish o‘rinlari tashkil qilinsin.

4. Tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarga ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro‘yxatga olingan, ro‘yxat raqami 3163) buyrug‘iga asosan subsidiya ajratib berish tartibi bo‘yicha ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash belgilanganligi inobatga olinsin.

6. Ushbu qarorning ikkinchi ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan kasb va lavozimlar tashkil qilinsin.

7. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha mazkur qaror ijrosini bajarmagan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga ko‘ra ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

8. Qo‘shko‘pir tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi besh kun muddatda ushbu qarorni 1-ilovasida ko‘rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazsin.

9. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan kuchga kirishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 27-oktabrdagi 335-12-172-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Tuman hokimining Axborot xizmati masalalari bo‘yicha maslahatchisi *(F.Omanbayeva)* mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga hamda hokimlikning rasmiy nashri hisoblangan “Hayot ko‘zgusi” gazetasida e’lon qilinishini ta’minlasin.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari *(S.Pirnapasov)* va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (*A.Tangriberganov)* zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh. K. Axmedov**

Qo‘shko‘pir tuman hokimining
2024-yil 19-noyabrdagi
600-12-172-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2025-yilda Qo‘shko‘pir tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida

MA'LUMOT

Xududlar nomi	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar soni	Kelgusi yilga zaxiraga taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:									
			14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	«Mehriboнlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	odam savdosidan jabrlanganlar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun ish o‘rinlari soni	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar
V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	22
Qo‘ksho‘pir tumani	27	62	29	25		2	2		2			2

Qo‘shko‘pir tuman hokimining
2024-yil 19-noyabrdagi
600-12-172-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2025 yilda Qo‘shko‘pir tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida

MA'LUMOT

№	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarining umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:								
				14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	odam savdosidan jabrlanganlar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun ish o‘rinlari soni	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar
1.	Qo‘shko‘pir tuman xokimligi huzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi	248	6	2	2		1		1			
2.	Qo‘shko‘pir tuman ko‘p tarmoqli tibbiyot birlashma	1246	6	2	1		1		1			1
3.	Davlat san-epid osoyishtalik markazi	71	2	1	1							

4.	Madaniyat bo‘limi	55	2	1		1						
5.	Qo‘shko‘pir tuman 1 son kasb-xunar maktabi	85	2	1	1							
6.	Qo‘shko‘pir tuman 2 son kasb-xunar maktabi	72	2	1	1							
7.	3-son umumiy o‘rta ta'lim maktabi	111	2	1	1							
8.	6-son umumiy o‘rta ta'lim maktabi	80	2	1								1
9.	10-son umumiy o‘rta ta'lim maktabi	84	2	1	1							
10.	13-son umumiy o‘rta ta'lim maktabi	58	2	1	1							
11.	17-on umumiy o‘rta ta'lim maktabi	100	2	1		1						
12.	23-on umumiy o‘rta ta'lim maktabi	76	2	1	1							
13.	27-on umumiy o‘rta ta'lim maktabi	89	2	1	1							
14.	31-son umumiy o‘rta ta'lim maktabi	74	2	1	1							
15.	34-son umumiy o‘rta ta'lim maktabi	74	2	1	1							
16.	42-son umumiy o‘rta ta'lim maktabi	56	2	1	1							
17.	53-son umumiy o‘rta ta'lim maktabi	54	2	1	1							
18.	4-son maktabgacha ta'lim muassasasi	42	2	1	1							
19.	8-son maktabgacha ta'lim muassasasi	36	2	1	1							
20.	9-son maktabgacha ta'lim muassasasi	38	2	1	1							

21.	10-son maktabgacha ta'lim muassasasi	30	2	1	1							
22.	13-son maktabgacha ta'lim muassasasi	35	2	1	1							
23.	14-son maktabgacha ta'lim muassasasi	38	2	1	1							
24.	22-son maktabgacha ta'lim muassasasi	43	2	1	1							
25.	28-son maktabgacha ta'lim muassasasi	32	2	1	1							
26.	32-son maktabgacha ta'lim muassasasi	31	2	1	1							
27.	39-son maktabgacha ta'lim muassasasi	24	2	1	1							
28.	**jami:**	**2982**	62	**29**	**25**	**2**	**2**		**2**			**2**

Qo‘shko‘pir tuman hokimining
2024-yil 19-noyabrdagi
600-12-172-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Korxona, tashkilot va muassasalarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan kasb va lavozimlar

R o‘ Y X A T I

№	Korxona tashkilot,muassasalar nomi	Xodimlar-ning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni	Band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarining eng kam belgilangan mikdori	Ko‘rsatilgan ish o‘rnining kasbi va lavozimi
1	Qo‘shko‘pir tuman xokimligi huzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi	248	6	Mutaxassis, ko‘kalamzorlashtirish ishchi
2	Qo‘shko‘pir tuman ko‘p tarmoqli tibbiyot birlashma	1246	6	Shifokor, hamshira
3	Davlat san-epid osoyishtalik markazi	71	2	Shifokor, qorovul, haydovchi
4	Madaniyat bo‘limi	55	2	o‘qituvchi, qorovul, farrosh
5	Qo‘shko‘pir tuman 1 son kasb-xunar maktabi	85	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
6	Qo‘shko‘pir tuman 2 son kasb-xunar maktabi	72	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
7	3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	111	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
8	6-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	80	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
9	10-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	84	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
10	13-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	58	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi

11	17-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	100	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
12	23-on umumiy o‘rta ta’lim maktabi	76	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
13	27-on umumiy o‘rta ta’lim maktabi	89	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
14	31-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	74	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
15	34-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	74	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
16	42-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	56	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
17	53-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	54	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
18	4-son maktabgacha ta’lim muassasasi	42	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
19	8-son maktabgacha ta’lim muassasasi	36	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
20	9-son maktabgacha ta’lim muassasasi	38	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
21	10-son maktabgacha ta’lim muassasasi	30	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
22	13-son maktabgacha ta’lim muassasasi	35	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
23	14-son maktabgacha ta’lim muassasasi	38	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
24	22-son maktabgacha ta’lim muassasasi	43	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
25	28-son maktabgacha ta’lim muassasasi	32	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
26	32-son maktabgacha ta’lim muassasasi	31	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
27	39-son maktabgacha ta’lim muassasasi	24	2	o‘qituvchi, ishchi xizmatchi
xx	**JAMI**	**2982**	**62**	